

01-14/11  
2.07.2024-yil

TASDIQLAYMAN  
O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv"  
agentligi Jamoatchilik kengashi raisi



A.X. Ziyo

2024-yil 2-iyul

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi  
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining  
2-son bayoni

**Raislik qiluvchi:**

A. X. Ziyo

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Tarix  
instituti direktori, "O'zarxiv" agentligi  
Jamoatchilik kengashi raisi

**Qatnashdilar:**

Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat  
bo'yicha)

**Taklif etilganlar:**

Sh. Sadikov

"O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari

O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi boshqarmalari boshliqlari, ommaviy  
axborot vositalari hamda boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlari vakillari

**KUN TARTIBI**

**I. "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimi to'g'risida**

**II. Davlat arxivlarida elektr energiyasini tejamkorligini ta'minlashda  
Quyosh panellari o'rnatilishi to'g'risida**

**III. Davlat ijtimoiy buyurtmalariga takliflarni ko'rib chiqish to'g'risida**

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-  
mulohazalar muhokamasi asosida **qaror qilindi:**

**I. "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimi to'g'risida**

(A. X. Ziyo, A. Ziyatdinov..)

1. Elektron hujjatlarni saqlash uchun topshirishga mo'ljallangan "Idoraviy  
elektron arxiv" axborot tizimi ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga joriy etish  
yuzasidan Agentlikning 2024-yil 11-yanvardagi 01-28-07/50-son xati bilan vazirlik  
va idoralarga yuborilganligi;

"Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimini joriy etish bo'yicha elektron  
qo'llanma ishlab chiqilib, Agentlikning ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilganligi  
ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi a'zolari, Agentlik va davlat arxivi xodimlari 2024-yilda bosqichma-bosqich tashkilot va korxonalarda Elektron hujjatlarni saqlash uchun topshirishga mo'ljallangan "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimini amaliyotga joriy etish va qo'llash bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirsin.

3. Agentlikning Arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati bo'limi "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimini amaliyotga joriy etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo'yicha Agentlik rahbariga taklif kiritin.

### **III. Davlat arxivlarida elektr energiyasini tejamkorligini ta'minlashda Quyosh panellari o'rnatilishi to'g'risida**

*A. X. Ziyo, Sh. Sadikov, A. Fayzullayev, D. Ko'charova, A. Mamanazarov*

---

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi "Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-220-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-sentabrdagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish to'g'risida"gi 518-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 10-iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 48-son Bayoni ijrosi yuzasidan, "O'zarxiv" agentligining 2022-yil 1-iyuldagi 01-25-06/837-son bir yillik Chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi;

2024-yilda davlat arxivlarining binosiga o'rnatilishi belgilangan rejani nazorati, bajarilishi va uning nazoratini amalga oshirilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari Sh. Tursunboyev, Agentlik bosh mutaxassisi A. Fayzullayev bilan birgalikda energiya tejamkorligi bo'yicha o'rnatilayotgan elektr panellarining samaradorligi va tejamkorligi bo'yicha Agentlik rahbariga har chorakda ma'lumot kiritib borsinlar.

### **III. Davlat ijtimoiy buyurtmalariga takliflarni ko'rib chiqish to'g'risida**

*A. X. Ziyo, Sh. Sadikov, Sh. Tursunbayev, N. Anarkulova, A. Mamanazarov*

---

6. "O'zarxiv" agentligi tomonidan 2024-yilda amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmalari haqidagi axborot, xususan, Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar muhokamasi davomida 4 ta loyiha ijtimoiy ahamiyatga egaligi;

Loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda realizatsiyasi uchun nodavlat-notijorat tashkilotlariga berilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Jamoatchilik kengashi a'zolari mazkur loyihalarni puhta o'rganib chiqish va xulosalarini Agentlikka taqdim etish tavsiya etilsin.

8. Taklif etilgan loyihalar Adliya vazirligiga taqdim etilsin. (Loyihalar ilova qilinadi)

Kengash kotibi  
Sh. Tursunbayev

**“O‘zarxiv” agentligi huzuridagi arxiv ishi masalalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi a‘zolari ro‘yxati.**

1. **Azamat Ziyov** Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, tarix fanlari doktori, professor Jamoatchilik kengashi raisi
2. **Shuxrat Mirayimovich Tursunboyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari-Kengash kotibi
3. **Anvarjon Orifjonovich Aliyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi Ishchi organi rahbari
4. **Abdurasul Maxmudovich Yaxshiboyev** O‘zbekiston Milliy arxivi bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
5. **Anvarjon Akramjonovich Abdumuxtorov** O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi Kengash a‘zosi
6. **Zulayxo Abdurazzakovna Akramova** Qonunchilik palatasi deputati Kengash a‘zosi
7. **Akmal Jumaqul o‘g‘li Amirov** Tashqi ishlar vazirligi arxiv mudiri Kengash a‘zosi
8. **Muazzamxon Xursanovna Umarova** Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi bosh mutaxassisi Kengash a‘zosi
9. **Nodira Bahodirjanovna Karimova** O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi devoni bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
10. **Lola Shavkatovna Arifjanova** Vazirlar Mahkamasi idoraviy arxivi mudiri Kengash a‘zosi
11. **Zumrad Bayxurazovna Rahmankulova** O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi Kengash a‘zosi
12. **Ozoda Raxmatjonovna Jahonova** O‘zbekiston Qizil yarim oy jamiyati kadrlar boshqarmasi inspektori Kengash a‘zosi
13. **Umida Alimdjanovna Teshabayeva** A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Kengash a‘zosi
14. **Ulbosin Abduaxatovna Abdumalikova** “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori maslahatchisi Kengash a‘zosi
15. **Gulnora Adashevna To‘rayeva** O‘zbekiston Respublikasi IIV axborot markazi maxsus fondlar bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
16. **Nargis Qosimova** Jurnalist, blogger Kengash a‘zosi
17. **Shavkat Turobovich Raxmatullayev** “Tarixchilar jamiyati” nodavlat notijorat tashkiloti rahbarining o‘rinbosari Kengash a‘zosi
18. **Maqaddas Do‘stmatov** Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi ijrochi direktori Kengash a‘zosi
19. **Davron Fatxullayevich Fayzullayev** “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi vakili-Qatag‘on qurbonlari muzeyi arxiv va fond bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
20. **Nodira Maxmudovna Musayeva** O‘zbekiston Faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llabquvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi “Nuroniy” jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i Kengash a‘zosi
21. **Muxayyo Sirojiddanovna Isakova** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti Bosh ilmiy xodimi, O‘zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi Kengash a‘zosi

**“O‘zarxiv” agentligining Jamoatchilik kengashi muhokamasiga kiritilgan ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan davlat ijtimoiy buyurtmasiga loyihalar**

**Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to‘g‘risida  
BUYURTMANOMA-1  
(faqat davlat tashkilotlari uchun)**

<b>Davlat tashkilotining nomi</b>	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi
<b>Davlat organi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari (tashkilot nizomiga asosan)</b>	Arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, ularning saqlanishini, davlat hisobiga olinishini ta‘minlash va ulardan keng foydalanish; Jismoniy va yuridik shaxslarga arxiv ishi va ish yuritish sohasida xizmat ko‘rsatilishini tashkil etish va nazorat qilish. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi <b>72-son qarori</b> bilan tasdiqlangan)
<b>Buyurtmaning maqsadi</b>	1. Davlat arxivlarida saqlanayotgan eski o‘zbek alifbosi – arab grafikasidagi qo‘lyozmalar (Buxoro amirligi qushbegisi-kanselyariyasi hujjatlari), chop etilgan nashrlarni tanlab olish hamda ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan, davlatchilik tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘lyozmalarni tarjima qildirish, o‘zbek tiliga o‘girish hamda kitob shaklida nashr ettirish; 2. Aholiga, barchaga ochiq bo‘lgan tarix zarvaraqlarini tushunarli tartibda kitob kilib, keng jamoatchilikka yetkazish;
<b>Buyurtmaning vazifalari</b>	- o‘zbek davlatchiligiga oid eski o‘zbek-arab alifbosida yaratilgan tarixiy arxiv materiallari asosida tarjima ishlarini olib borish va kitob nashr ettirishga tayyorlash; - arxiv hujjatlarini kitob shakliga keltirish; - kitob loyihasini tayyorlash, tahrir qilish, nashriyot bilan tahrir hay‘atini tayyorlash - kitobni nashr ettirish
<b>Buyurtmaning shartlari</b>	- “O‘zbek davlatchiligi tarixi arxiv hujjatlarida” nomli kitob nashr ettirish uchun mualliflar jamoasini shakllantirish; - arxiv hujjatlarini saralash, chop etiladigan materiallarni tanlab olish; - kitob shaklini kelishish hamda 1000 nusxada chop ettirish
<b>Buyurtmani bajarishdan kutilayotgan natija</b>	Arxiv hujjatlarini targ‘ib qilish; Fuqarolarga, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodga vatan tarixini arxiv hujjatlarida tushuntirib beradigan qo‘llanma yaratiladi.
<b>Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondidan so‘ralayotgan mablag‘ miqdori (so‘mda)</b>	700 mln so‘m
<b>Davlat organining ulushi</b>	100 mln so‘m “O‘zarxiv” agentligining Arxiv ishini rivojlantirish jamg‘armasi.
<b>Buyurtmani davlat ijtimoiy dasturlariga, hududiy rivojlantirish dasturlariga kiritilganligi yoki kiritish imkoniyatining mavjudligi</b>	Mazkur loyiha ilk marotaba ishlab chiqilayotgan bo‘lib, davlat ijtimoiy dasturlariga kiritilmagan. Ushbu loyiha davlat va jamiyat ijtimoiy ahamiyatiga ega bo‘lib, “O‘zarxiv” agentligi tomonidan yaratish yoki chop ettirish imkoniyati mavjud emas.

**Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida**  
**BUYURTMANOMA-2**  
(faqat davlat tashkilotlari uchun)

<b>Davlat tashkilotining nomi</b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi
<b>Davlat organi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari (tashkilot nizomiga asosan)</b>	Arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, ularning saqlanishini, davlat hisobiga olinishini ta'minlash va ulardan keng foydalanish; Jismoniy va yuridik shaxslarga arxiv ishi va ish yuritish sohasida xizmat ko'rsatilishini tashkil etish va nazorat qilish. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi <b>72-son qarori</b> bilan tasdiqlangan)
<b>Buyurtmaning maqsadi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nogironligi bo'lgan shaxslarning arxiv hujjatlaridan to'laqonli foydalanishini ta'minlash;</li> <li>2. Arxiv hujjatlarini nogironligi bo'lgan, ko'zi ojiz shaxslar uchun o'qishi, ishlashi uchun tayyorlash;</li> <li>3. Brayl alifbosida arxiv hujjatlarining "Yo'l ko'rsatkichlari"ni chop etish;</li> </ol>
<b>Buyurtmaning vazifalari</b>	- arxiv hujjatlarining yo'l ko'rsatkichlari va boshqa ma'lumotlarini Brayl alifbosida chop ettirish hamda ko'zi ojiz nogironlarning arxiv xizmatlaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishini ta'minlash; - 12 ta viloyat davlat arxivlari hamda 2 ta markaziy davlat arxivi va 3 ta milliy arxivlarda saqlanayotgan milliy arxiv fondi va arxiv hujjatlarini yo'l ko'rsatkichlarini raqamlashtirish hamda Brayl alifbosida chop ettirishi uchun zarur materiallarni xarid qilish;
<b>Buyurtmaning shartlari</b>	12 ta viloyat davlat arxivlari hamda 2 ta markaziy davlat arxivi va 3 ta milliy arxivlarda saqlanayotgan milliy arxiv fondi va arxiv hujjatlarini yo'l ko'rsatkichlarini yangi nashrdan chiqarish va Brayl alifbosida chop ettirish uchun buyurtma loyihasini ishlab chiqish
<b>Buyurtmani bajarishdan kutilayotgan natija</b>	Nogironligi bo'lgan, ko'zi ojiz shaxslarning arxiv hujjatlaridan to'g'ri foydalanishini ta'minlash; Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash.
<b>Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondidan so'ralayotgan mablag' miqdori (so'mda)</b>	Bir milliard so'm
<b>Davlat organining ulushi</b>	300 mln so'm "O'zarxiv" agentligining Arxiv ishini rivojlantirish jamg'armasi.
<b>Buyurtmani davlat ijtimoiy dasturlariga, hududiy rivojlantirish dasturlariga kiritilganligi yoki kiritish imkoniyatining mavjudligi</b>	Mazkur loyiha ilk marotaba ishlab chiqilayotgan bo'lib, davlat ijtimoiy dasturlariga kiritilmagan. Ushbu loyiha davlat va jamiyat ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lib, "O'zarxiv" agentligi tomonidan yaratish yoki chop ettirish imkoniyati mavjud emas.

**Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida**  
**BUYURTMANOMA-3**  
(faqat davlat tashkilotlari uchun)

<b>Davlat tashkilotining nomi</b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi
<b>Davlat organi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari (tashkilot nizomiga asosan)</b>	Arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, ularning saqlanishini, davlat hisobiga olinishini ta'minlash va ulardan keng foydalanish; Jismoniy va yuridik shaxslarga arxiv ishi va ish yuritish sohasida xizmat ko'rsatishini tashkil etish va nazorat qilish. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi <b>72-son qarori</b> bilan tasdiqlangan)
<b>Buyurtmaning maqsadi</b>	1. Jadid namoyandalarning boy ma'naviy merosini kitob-albom shaklida keng jamoatchilikka yetkazish; 2. Yoshlarda jadidchilik harakatiga oid arxiv va fotoarxiv hujjatlari orqali vatanparvarlik g'oyalari shakllantirish
<b>Buyurtmaning vazifalari</b>	- 12 ta viloyat davlat arxivlari hamda 2 ta markaziy davlat arxivi va 3 ta milliy arxivlarda saqlanayotgan milliy arxiv fondi va arxiv hujjatlarini o'rganish orqali jadidchilik harakatiga oid yangi ma'lumotlarni izdab topish, saralash, nusxa ko'chirish va buyurtmaga berish -arxiv hujjatlari asosida jadidlarning xayoti, ijtimoiy faoliyati, ijodi va g'oyalari, ilgari surilgan takliflarini o'rganish, chop etish
<b>Buyurtmaning shartlari</b>	O'rganilgan va saralangan hujjatlarni tahlil qilish, fofoko'rgazmalarga tayyorlash, kitob shakliga keltirish-sahifalash, o'rganilgan materiallar asosida kitob-albom chop ettirish
<b>Buyurtmani bajarishdan kutilayotgan natija</b>	Jadidchilik harakatiga oid arxiv hujjatlarini keng jamoatchilikka yetkazish. (300 varaqlik, 500 ta kitob kutubxonalarga, mag'allalarga tarqatiladi.)
<b>Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondidan so'ralayotgan mablag' miqdori (so'mda)</b>	500 (besh yuz) mln so'm
<b>Davlat organining ulushi</b>	100 mln so'm "O'zarxiv" agentligining Arxiv ishini rivojlantirish jamg'armasi.
<b>Buyurtmani davlat ijtimoiy dasturlariga, hududiy rivojlantirish dasturlariga kiritilganligi yoki kiritish imkoniyatining mavjudligi</b>	Mazkur loyiha ilk marotaba ishlab chiqilayotgan bo'lib, davlat ijtimoiy dasturlariga kiritilmagan. Ushbu loyiha davlat va jamiyat ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lib, "O'zarxiv" agentligi tomonidan yaratish yoki chop ettirish imkoniyati mavjud emas.

**Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to‘g‘risida**  
**BUYURTMANOMA-4**  
(faqat davlat tashkilotlari uchun)

<b>Davlat tashkilotining nomi</b>	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi
<b>Davlat organi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari (tashkilot nizomiga asosan)</b>	Arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; Milliy arxiv fondi hujjatlarini jamlash, ularning saqlanishini, davlat hisobiga olinishini ta‘minlash va ulardan keng foydalanish; Jismoniy va yuridik shaxslarga arxiv ishi va ish yuritish sohasida hizmat ko‘rsatilishini tashkil etish va nazorat qilish. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi <b>72-son qarori</b> bilan tasdiqlangan)
<b>Buyurtmaning maqsadi</b>	1.Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va tarixan shakllangan jamiyatning turli davrlarida “Muqaddas ayol” obrazini ko‘rsatib berish; 2.O‘zbekistoon Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi saqlovidagi arxiv va foto hujjatlardan keng foydalanishni ta‘minlash; 3. Kitob-albom chop etish va mahallalar kutubxonalariga yetkazish
<b>Buyurtmaning vazifalari</b>	1.Arxiv ishi sohasini huquqiy, ma‘naviy targ‘ib qilish va O‘zbekiston milliy arxivlarida saqlanayotgan arxiv va fotohujjatlarni keng jamoatchilikka qulay foydalanishni ta‘minlash; 2. Arxiv fotohujjatlarining elektron va kitob shaklda saqlovini ta‘minlash 3. Arxiv fotohujjatlarini kitob-albom shaklida chop ettirish
<b>Buyurtmaning shartlari</b>	“Muqaddas ayol ramzi” nomli kitob-albom chop etish, kitob-albomda arxiv fotohujjatlari va ularning tarixi, olingan davri, tavsifi aks ettiriladi.
<b>Buyurtmani bajarishdan kutilayotgan natija</b>	“Muqaddas ayol ramzi” nomli kitob albom chop ettirish, davlat organlari va idoralari, jamoat tashkilotlariga, chet el elchixonalariga tarqatish
<b>Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondidan so‘ralayotgan mablag‘ miqdori (so‘mda)</b>	500 (besh yuz) mln so‘m
<b>Davlat organining ulushi</b>	100 mln so‘m “O‘zarxiv” agentligining Arxiv ishini rivojlantirish jamg‘armasi.
<b>Buyurtmani davlat ijtimoiy dasturlariga, hududiy rivojlantirish dasturlariga kiritilganligi yoki kiritish imkoniyatining mavjudligi</b>	Mazkur loyiha ilk marotaba ishlab chiqilayotgan bo‘lib, davlat ijtimoiy dasturlariga kiritilmagan. Ushbu loyiha davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyatiga ega bo‘lib, “O‘zarxiv” agentligi tomonidan yaratish yoki chop ettirish imkoniyati mavjud emas.